

NAMANGAN VILOYATINING EKOLOGIK-IQTISODIY RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARI

Odilov Xamidillo Maxmudjon o'g'li

Namangan davlat universiteti
Menejment kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Namangan viloyatining ekologik-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari hamda o'zaro bog'liq bo'lgan iqtisodiyot, ekologiya va ijtimoiy jarayonlarni birgalikda boshqarish barqaror rivojlanishni ta'minlashning asosiy shartidir. Shu munosabat bilan O'zbekiston mintaqalaridagi hozirgi ekologik vaziyatni ekologiya iqtisodiyoti nuqtai nazaridan tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Namangan viloyatida ekologik xavfsizlikni ta'minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi haqida fikr va mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: ekologiya, ijtimoiy jarayon, atrof-muhit, rivojlanish ko'rsatkichlari, ekologik vaziyat.

Аннотация

В данной статье рассматриваются эколого-экономические показатели развития Наманганской области, а также взаимосвязь экономики, экологии и социальных процессов как основного условия обеспечения устойчивого развития. В этом контексте анализ современной экологической ситуации в регионах Узбекистана с точки зрения экологической экономики приобретает особую значимость. В статье приведены мнения и рассуждения о организационно-экономическом механизме обеспечения экологической безопасности в Наманганской области.

Ключевые слова: экология, социальный процесс, окружающая среда, показатели развития, экологическая ситуация.

Abstract

This article examines the ecological and economic development indicators of the Namangan region, as well as the interconnection of the economy, ecology, and social processes as a key condition for ensuring sustainable development. In this context, analyzing the current environmental situation in Uzbekistan's regions from the perspective of ecological economics is of great importance. The article presents opinions and reflections on the organizational and economic mechanism for ensuring environmental security in the Namangan region.

Keywords: ecology, social process, environment, development indicators, ecological situation.

KIRISH

O'zbekiston mintaqalarida ekologik tadbirlarni tizimli amalga oshirishga katta ahamiyat berilib, bu tizim milliy iqtisodiyotni isloh qilishning tarkibiy qismiga

aylanmoqda. Shu doirada atrof-muhitni muhofaza qilishni amalga oshirishning ko'p bosqichli tuzilmalari barpo etildi, atrof-muhitni muhofaza qilishning huquqiy asosi yaratilib, u muntazam takomillashtirilmoqda. 2030 yilgacha tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan samarali foydalanish bo'yicha davlat dasturi ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilgan. Atrof-muhitni muhofaza qilish milliy harakat rejasi hamda biologik xilma-xillikni saqlash milliy strategiyasi va harakat rejasi ishlab chiqilgan. Shuningdek, respublikada atrof-muhit gigiyenasi bo'yicha milliy harakat rejasi qabul qilingan va alohida muhofaza qilinadigan hududlar maydoni sezilarli darajada kengaytirilgan.

Ushbu strategiyalar mamlakat mintaqalaridagi ekologik-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini shakllantirish bilan birga, hududlar kesimida turli yondashuvlarni talab etadi. Namangan viloyati misolida ekologik-iqtisodiy munosabatlarning o'ziga xos jihatlarini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Shu sababdan mintaqaholisining yashashi uchun sog'lom shart-sharoit vujudga keltirish va tabiatdan foydalanish samaradorligini oshirish, tabiiy resurslarning kamayishiga yo'l qo'ymaslik, tabiatni asrash va muhofaza qilishda ekologiya iqtisodiyoti va uning amaliyoti boshqarishning muhim ahamiyatga ega bo'lgan yo'nalishlari qatoriga kiradi.

Ekologiya iqtisodiyotining amaliyoti nuqtai nazaridan tabiatdan foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida respublika mintaqalarida uzoq davr mobaynida hukmronlik qilgan o'tmish totalitar tuzumdan meros bo'lib qolgan ekologik muammolar yechimini topish, mintaqalarda mavjud bo'lgan boshqa ekologik muammolarning yaxlit manzarasini aniqlash, ularni keltirib chiqargan sabablari va ulardan kutilayotgan ko'ngilsiz oqibatlarining natijasini aniqlash, iqtisodiy vaziyatning ekologiyaga ta'sirini tahlil etish mintaqalarda antropogen omillarga bog'liq bo'lgan ekologik vaziyat to'g'risida to'la tasavvur beradi. Bular o'z navbatida ekologiya iqtisodiyoti amaliyotida maqsadga muvofiq loyihalarga afzallik berish yoki samarasiz loyihalarni rad etish masalalarini to'g'ri hal etishga xizmat qiladi.

Respublika mintaqalaridagi hozirgi ekologik vaziyat uzoq o'tmish va yaqin davrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda hukmronlik qilgan boshqaruvning yuqori darajada markazlashuvi, iqtisodiyot va tabiatdan foydalanish o'rtasida maqsadga muvofiq muvozanatning o'rnatilmaganligi, ishlab chiqarishga, ayniqsa qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga haddan ziyod ahamiyat berilgani, tabiiy resurslardan foydalanish va tabiat muhofazasini boshqarishga yetarli e'tibor berilmaganligi va boshqa ko'plab omillar bilan uzviy bog'liqdir. Bular esa o'z navbatida tabiatga katta zarar yetkazdi, umumiy ekologik vaziyatning keskinlashuviga, ekotizimlar va landshaftning buzilishiga va boshqa og'ir oqibatlarga olib keldi, respublikada umumiy ekologik barqarorlikni jiddiy xavf ostiga qo'ydi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Ekologik xavfsizlik kontsepsiyasining asosiy vazifasi turli xil ekologik tahdidlar, texnogen va tabiiy muammolar sharoitida insonlarni xavfsiz yashashini ta'minlash, atrof-muhitni muhofaza qilish va ekotizimlarni himoya qilishga qaratilgan. Ekologik xavfsizlik kontsepsiyasini amalga oshirish bo'yicha harakatlar atrof-muhitni

muhofaza qilish bo'yicha mintaqaviy siyosatdir. Bu konsepsiya insonlar hayoti, jamiyat va davlat manfaatlarini huquqiy jihatdan himoya qilish bilan bog'liq. [1]

Ayni vaqtda ekologik xavfsizlik tushunchasini shakllantirish masalasida yagona yondashuv mavjud emas.

Freydkina E.M., Treyman M.G.[2]- Ekologik xavfsizlik insoniyat va biosferani muhofaza qilishni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar tizimini o'z ichiga oladi.

Buzan B. [3]-Ekologik xavfsizlik – xavfli vaziyatlarning keyingi rivojlanishini oldindan ko'rish, oldini olish va agar sodir bo'lsa, bartaraf etish imkonini beruvchi tartibga solish va boshqarish tizimini nazarda tutadi.

Sporring E.Dj. [4]- Ekologik xavfsizlik – inson hayotini va butun tizimda tabiiy ekologik muvozanatni saqlab qolish uchun yer resurslarining muhim iqtisodiy tarkibiy qismlarini himoya qilish holatidir.

Djorobekov J.M.[5]- Ekologik xavfsizlik ifloslangan tabiiy ob'ektlarning tahdidlaridan himoya qilish yoki aholi va hududlarni tabiiy va texnogen favqulodda vaziyatlardan himoya qilish, deb ta'riflanadi.

Surkova E.V. Melchenko A.I. [6]- Ekologik xavfsizlik – bu hayot xavfsizligiga o'xshash tushuncha, chunki har ikkala holatda ham insonni salbiy antropogen omillardan himoya qilish, uning yashashi uchun tegishli sharoitlarni ta'minlashni nazarda tutilgan.

Porfirev B.N. [7] Ekologik xavfsizlik – bu atrof-muhitni ifloslantirmaslik, kelajak avlodlar uchun tabiatning asl qiyofasini saqlab qolish imkoniyatidir.

Tulupov A.S. [8]- Ekologik xavfsizlik bu zararli ta'sirlarni minimallashtirish bilan bog'liq.

Xorijiy mamlakatlarda amalga oshirilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ekologik xavfsizlik – bu har bir insonni, jamiyatni va davlatni, atrof-muhitni texnogen omillar natijasida tabiiy ob'ektlardan kelib chiqadigan tahdidlardan, shuningdek, tabiiy muhitni iqtisodiy faoliyat natijasidan himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. [9]

Shuningdek, xorijiy mamlakatlarda ekologik xavfsizlik tushunchasi turli xil yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Jumladan, ekotizimlarning buzilishi, energiya muammolari, aholi va uning sog'ligi bilan bog'liq muammolar, oziq-ovqat muammolari, iqtisodiy muammolar, favqulodda vaziyatlar, fuqarolik nizolari va boshqalar. [10]

METODOLOGIYA

Ushbu maqolani tayyorlashda qiyosiy, tahlil qilish va tanlama kuzatish, statistik hamda ko'p omilli ekonometrik tahlil usullari, modellashtirish jarayonlarda iqtisodiy-matematik, noaniq to'plam nazariyasi, prognozlash va boshqa usullar qo'llanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston mintaqalaridagi hozirgi ekologik vaziyatning hisobga olinishi zarur bo'lgan asosiy xususiyatlarini quyidagi omillar ko'rsatishi mumkin:

- Ekologik talablarga to'la javob beradigan hududlar mamlakat umumiy maydonining 27 foizini tashkil etadi va mazkur hududda O'zbekistonning 45 foiziga yaqin aholisi yashaydi.

- Iqtisodiyotning xomashyo va tabiatni ekspluatatsiya qiluvchi resurs va energiyani ko'p iste'mol qiladigan tarmoqlarning tez rivojlanishi (ayniqsa, an'anaviy qishloq xo'jaligi, foydali qazilmalarni qazib olish, boshqa energiya va xomashyoni ko'p iste'mol qiladigan tarmoqlar) tabiiy muhitga salbiy ta'sir qilish bosimining kuchayib borishiga va me'yordan oshib ketishiga olib kelgan;

- Tabiat komponentlarining barchasida ekologik holat sezilarli o'zgarishlarga uchragan. Bular qatoriga havoning, yer usti va yer osti suvlarining ifloslanishi, tuproqning sho'rlanishi va degradatsiyaga uchrashi, biologik, mahsuldorlik va xilma-xillikning kamayishi, yaylovlarning digressiyasi, o'rmonlarning kesib yuborilishi, cho'llashuv jarayonlarining kuchayishi va boshqalar kiradi;

- Aholi yashash manzillari – shahar va qishloqlarda ekologik vaziyatning yomonlashuvi va uning aholi salomatligi va turmush darajasiga zararli ta'sirining kuchayib borishi kuzatilmoqda. Bular qatoriga aholining toza ichimlik suvi bilan yetarli darajada ta'minlanmaganligi, kommunal xo'jaligi va sanoat oqavalarining, chiqindilarning ko'payishi, sanitariya xizmatining past darajasi va boshqa noqulayliklarning mavjudligi kiradi;

- Qattiq chiqindilarning (shu jumladan, zaharli sanoat chiqindilari) ko'plab to'planib qolishi, radioaktiv ifloslanishning katta xavflari borligi (Markaziy Qizilqum, Toshkent viloyati va boshqalar);

- Tabiiy va texnogen halokatlar (sel, ko'chki, o'pirilish, zilzilalar) xavfining kuchayib borishi;

- Orol bo'yidagi salbiy ekologik o'zgarishlarga bog'liq bo'lgan halokat va inqirozlar, ijtimoiy ofat, ekologik noqulayliklarning mavjudligi;

- Alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar maydoni va strukturasining talabga javob bermasligi;

- Qo'shni davlatlarning chegaralaridan o'tib kelayotgan ifloslantiruvchi ta'sirning mavjudligi va boshqalar.


O'zbekistonda mavjud bo'lgan ekologik vaziyatning ko'rsatilgan o'ziga xos xususiyatlari har bir mintaqada aholining yashashi uchun qulay sharoitlar yaratish, tabiiy resurslardan tugab qolmaydigan tarzda foydalanish, tabiatning mahsuldorligi, o'z-o'zini tiklash imkoniyatlarini saqlab qolish, atrof-muhitni saqlash va muhofaza qilish sohasida milliy manfaatlarning ustuvorligini ta'minlash, xalq xo'jaligida ekologiyalashtirishni keng qo'llash yo'nalishlarida tadqiqotni kuchaytirishni taqozo etadi.

Jumladan, Namangan viloyatining umumiy yer maydoni 7,44 ming km.² dan iborat bo'lib, O'zbekistonning sharqida va Farg'ona vodiysining shimoliy qismida joylashgan. Shimolda Qirg'iziston Respublikasining Jalolobod va g'arbda Tojikiston Respublikasining Sug'd viloyatlari, shimoli-g'arbda Toshkent viloyati, janubda Farg'ona va janubi-sharqda Andijon viloyatlari bilan chegaralangan.

Namangan viloyati iqlimining hosil bo'lishida uning Markaziy Osiyoda joylashganligi va dengizlarning bevosita ta'siridan uzoqligi, atrofi baland tog' tizmalari bilan o'ralganligi va radiatsion aylanish jarayonlari muhim o'rin tutadi. Natijada viloyatda quruq o'rtacha iqlim qaror topgan bo'lib, cho'l va chala cho'l mintaqalarining holati yaqqol sezilib turadi. Dengiz sathidan Zarkent – 880 metr, Kosonsoy – 790 metr, Uchqo'rg'on – 500 metr, Namangan – 450 metr, Shahand – 400 metr, Jomashuy – 350 metr balandlikda joylashgan.[11]

Namangan viloyatining janubiy tekislik mintaqasi cho'l, subtropik iqlimga mansub, vegetatsiya davri 230-240 kun. Vegetatsiya davrining ijobiy harorati yig'indisi 4600-5000 gradus. Havo haroratining o'rtacha yillik tebranishi 14,5-16 gradus. Yanvar oyining o'rtacha harorati 2-4 gradus, absolyut minimum harorati esa 27-28 gradus. Iyul oyining o'rtacha harorati esa 20-28 gradus, eng yuqori harorati 44 gradusga teng. Yillik yog'in miqdori 150-180 mm. atrofida bo'lib, asosan yog'ingarchilik qish va bahor oylariga to'g'ri keladi. Yoz oylarida esa 10-15 mm. atrofida yog'in bo'ladi.[12]

Namangan viloyatida do'l yog'ish hodisalari tez-tez takrorlanib turadi. Har yili ana shunday takrorlanib turadigan do'l hodisalari natijasida adir va tog' oldi hududlari – Chust, Kosonsoy, Yangiqo'rg'on va Chortoq tumanlari katta iqtisodiy zarar ko'radilar.



1-rasm. Namangan viloyatining yer usti tuzilishi[13]

Namangan viloyatining yer usti tuzilishi «tekislik-adir-tog'» tizimida shimol va shimoli-sharq tomon ko'tarilib boradi hamda Qurama va Chotqol tog' tizmalariga tutashib ketgan. Jumladan, Sirdaryoning o'ng sohili tekisliklari ensiz va yer usti zinapoyasimon adir-tog' tizimi to'liq shakllangan. Bu hududda Namangan viloyatining

6,19 ming km.² yoki 83,2 foizi joylashgan. Asosiy tekisliklar Norin daryosi va Sirdaryoning chap sohilida joylashgan (1-rasm).

Namangan viloyatining umumiy yer maydonida tekislik qismi 60,0 foiz, adir 21,0 foiz va togʻ hududi 19,5 foizni tashkil etadi. Asosiy tekisliklar Uchqoʻrgʻon (0,30 ming km.²), Norin (0,21 ming km.²), Mingbuloq (0,74 ming km.²) tumanlarida hamda Pop tumanining bir qismida (1,30 ming km.²) kuzatiladi. Adirlar ulushi yuqori hududlar qatoriga Pop (23,4 foiz), Yangiqoʻrgʻon (20,8 foiz), Chust (16,0 foiz), Kosonsoy (14,9 foiz) va Chortoq (13,6 foiz) tumanlari kiradi. Shuningdek, mazkur tumanlarda togʻ hududlari ham shakllangan (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Namangan viloyatining yer usti tuzilishida tekislik, adir va togʻ hududlarining ulushi (2024 yil)[14]

№	Hudud nomi	Umumiy maydoni	Shu jumladan		
			Tekislik	Adir	Togʻ
1	Namangan shahri	$\frac{0,13}{1,7}$	$\frac{0,12}{2,7}$	$\frac{0,01}{0,6}$	0
2	Kosonsoy	$\frac{0,52}{7,0}$	$\frac{0,19}{4,3}$	$\frac{0,23}{14,9}$	$\frac{0,1}{6,9}$
3	Mingbuloq	$\frac{0,74}{10,1}$	$\frac{0,74}{16,6}$	0	0
4	Namangan	$\frac{0,21}{2,8}$	$\frac{0,17}{3,8}$	$\frac{0,04}{2,6}$	0
5	Norin	$\frac{0,21}{2,8}$	$\frac{0,21}{4,7}$	0	0
6	Pop	$\frac{2,91}{39,2}$	$\frac{1,30}{29,2}$	$\frac{0,36}{23,4}$	$\frac{1,25}{86,2}$
7	Toʻraqoʻrgʻon	$\frac{0,27}{3,6}$	$\frac{0,21}{4,7}$	$\frac{0,06}{3,9}$	0
8	Uychi	$\frac{0,30}{4,0}$	$\frac{0,24}{5,4}$	$\frac{0,06}{3,9}$	0
9	Uchqoʻrgʻon	$\frac{0,30}{4,0}$	$\frac{0,30}{6,7}$	0	0
10	Chortoq	$\frac{0,38}{5,1}$	$\frac{0,14}{3,1}$	$\frac{0,21}{13,6}$	$\frac{0,03}{2,1}$
11	Chust	$\frac{0,94}{12,6}$	$\frac{0,65}{14,6}$	$\frac{0,25}{16,2}$	$\frac{0,04}{2,8}$
12	Yangiqoʻrgʻon	$\frac{0,53}{7,1}$	$\frac{0,18}{4,0}$	$\frac{0,32}{20,8}$	$\frac{0,03}{2,1}$
	Jami	$\frac{7,44}{100}$	$\frac{4,45}{100}$	$\frac{1,54}{100}$	$\frac{1,45}{100}$

(Suratda hudud maydoni, ming km.²Maxrajda jami yer maydoniga nisbatan ulushi, foiz)

Mazkur holat Namangan viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida oʻz aksini topgan. Ayniqsa, adirlar hududining ulushi yuqori boʻlgan tumanlarda qishloq xoʻjalik

mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va hosildorligida doimiy past ko'rsatkichlar saqlanib qolmoqda.

Bunday xulosa tekislik, adir, adir-orti, tog' oldi va tog' hududlar tarkibi tahlilida ham asoslanadi. Jumladan, Namangan viloyati hududlarining o'zlashtirish oqibatlari va sifat ko'rsatkichlari bo'yicha quyidagi guruhlariga bo'linadi:[15]

1-guruh. Tekislik mintaqasi Markaziy Farg'ona tekisliklaridan boshlab, Norin va Sirdaryo terrasalarini hamda tor mintaqqa hosil qiluvchi bir necha tog' daryo va soylarining konussimon yoyilmalarini, konuslar oralig'idagi pastliklarni o'z tarkibiga oladi. Tekisliklarning dengiz sathidan balandligi Sirdaryoning chap sohili tekisliklarida 400-500 metr bo'lsa, o'ng sohil qismida 500-550 metrdan iborat. Tekisliklar hosil bo'lishiga ko'ra, yer usti shimol va shimoli-g'arbga tomon qiyalik hosil qiladi. Namangan viloyatida eng past hudud Sirdaryoning chap sohili bo'lib, botqoqlashgan sho'rlashgan qum barxanlari mavjud bo'lsada, nihoyatda intensiv sur'atda o'zlashtirilishi oqibatida grunt suvlari ko'tarilmoqda. Garchi tekislik mintaqasi Norin va Sirdaryo vodiysidan iborat bo'lsada, uning ayrim qismlari tabiiy-geografik jihatdan bir-biridan farq qiladi. Namangan viloyatida tekisliklar yaxlit maydoni hosil qilmaydi, aksincha halqasimon va bir biri bilan bog'lanmagan tarzda ajratib turadi.

2-guruh. Adirlar mintaqasiga dengiz sathidan 500-1000 metr baland hududlar kiradi. Adirlar Namangan viloyatida shimoli g'arbdan, ya'ni Chodaksoyning quyi qismidan shimoli-sharqiy yo'nalishida, Pop, Chust, To'raqo'rg'on, Kosonsoy, Namangan, Yangiqo'rg'on, Chortoq va Uychi tumanlarida yarim halqasimon tarzda cho'zilib yotadi. Adirlar xilma-xil shag'al, qum-tosh, lyoss va lyossimon jinslardan iborat bo'lib, Chorkesar va Chortoqsoy oralig'ida uchraydi. Adirlar relyefi keyingi 50 yil mobaynida kuchli sur'atda o'zgardi. Jiydalisoy, Morg'uzarsoy, Jabborsoy, Kengsoy, Sassiqlik kabi soylar ham adirlar relyefining parchalanib ketishiga, kuchli erozion jarayonlarining rivojlanishiga olib keldi. Ayniqsa, Chust, To'raqo'rg'on, Namangan, Yangiqo'rg'on va Chortoq tumanlardagi lyoss va lyossimon qatlamlar intensiv o'zlashtirish hamda noto'g'ri sug'orish ta'sirida irrigatsion eroziya jarayonlari rivojlanganligi hamda tuproq sho'rlanishi hodisalarining kengayib borayotganligi bilan ajralib turadi.

3-guruh. Adirorti va tog'oldi tekisliklari mintaqasi adir va baland tog' oralig'ida joylashgan bo'lib, xo'jalik nuqtai nazaridan katta ahamiyatga egadir. Bu mintaqada uchta adir-orti tekisligi ajratiladi: Chust-Olmos-G'ova-Varzik; Kosonsoy; Iskovot-Zarkent-Pishqo'rg'on. Ko'plab quruq soylar va Podshootasoy daryosi Iskovot-Zarkent-Pishqo'rg'on tekisligi relyefining bir-muncha o'zgarishiga olib kelgan. Namangan viloyatida tog'oldi mintaqasi adir-orti qiya tekisliklari bilan o'rtacha balandliklardagi tog'lar oralig'iga joylashgan bo'lib, uncha katta hududni egallamaydi. Bu mintaqqa 400-600 metrdan (Qurama tizmasida), 1000-1200 metrga qadar (Chotqol tizmasida) bo'lgan hududlarda nuragan jinslarning qalin yotqiziqlariga ega. Podshootasoy daryosining birinchi konussimon yoyilmalari tog'oldi mintaqasi relyefini keskin o'zgartirib yuborgan.

4-guruh. O'rtacha va baland tog'lar Namangan viloyatining eng shimoliy hududlarida joylashgan Podshootasoy va Qorasuv daryolari oralig'ida Boyotabuva

tog‘i joylashgan. Yer usti tuzilishi qoyali qismlardan tashqari o‘rtacha balandliklardagi tog‘ relyefi qaror topgan. Boyotabuva tog‘ining g‘arbida unchalik baland bo‘lmagan qoyalar tizimidan iborat O‘ng‘or mavjud. Shuningdek, Chustdan Tojikiston Respublikasining Asht tumaniga qadar hududda Chust-Pop uchlamchi gryadasi tartibsiz joylashgan. Ayniqsa G‘ovasoy va Chodaksoy oralig‘ida karst hodisalari, o‘pirilmalar, chuqurliklar va jarliklar mavjud. «Sof» tog‘li mintaqa Pop tumani hududidadir.

Yuqoridagi tahlillar Namangan viloyatida ekologik xavfsizlikni ta‘minlashga qaratilgan hududiy ixtisoslashuv yo‘nalishlarini belgilashga imkon beradi.

Ma‘lumki, ekologik xavfsizlikni ta‘minlashning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri atmosfera havosi hisoblanadi. Atmosfera havosini asosan ikki manba – tabiiy omillar va inson faoliyatining mahsuli (antropogen manbalar) ifloslantiradi.

Atmosfera havosini ifloslantiruvchi tabiiy omillar tog‘ jinslarining yemirilishi, vulqonlarning otilishi va o‘rmon yong‘inlari natijasida atrof-muhitga yetkaziladigan zararli ta’sirlardan iborat.

Antropogen ifloslanish asosan sanoat korxonalari, arzik va asfalt zavodlari, avtomobil, havo va temir yo‘l transporti chiqindilari hamda turli yoqilg‘ilarning ishlatilishi natijasida hosil bo‘ladigan zararli moddalar bilan bog‘liq.

Ifloslangan atmosfera havosining atrof muhitga, o‘simliklarga, insonning sog‘ligiga va turmush tarziga salbiy ta’siri juda kattadir. Tadqiqotlar atmosfera havosi ifloslangan hududlarda kasalliklarning nisbatan ko‘p bo‘lishi turar joylardagi havoning to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqindi moddalar bilan ifloslanishiga bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Sanoat korxonalari va transport vositalari havoga ko‘p miqdorda chiqindilarni chiqarib turishlari natijasida atrof muhitning ekologik muvozanati buziladi. Mutaxassislarning fikricha, havoning ifloslanib, uning kimyoviy tarkibi va fizik xossalari o‘zgarishi bilan tirik organizm holati ham shunga mos ravishda o‘zgaradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, Namangan viloyati hududlarini quyidagicha tuproq-iqlimiy zonaga bo‘lish mumkin:

- Cho‘l va cho‘l tuproq zonasi. Bu zonaga Namangan, To‘raqo‘rg‘on, Mingbuloq tumanlari va Chust, Pop tumanlarining janubiy qismlari.
- Och tusli bo‘z tuproqlar zonasi. Bu zonaga Norin, Uychi, Kosonsoy, Uchqo‘rg‘on tumanining janubiy-sharqiy qismi, Chortoq, Yangiqo‘rg‘on tumanlarining shimoliy tog‘ oldi qismlari.
- Tog‘ zonasi. Bunga Yangiqo‘rg‘on, Chust, Kosonsoy va Pop tumanlarining tog‘ hududlari.

Umuman olganda, Namangan viloyatida ekologik toza xizmat ko‘rsatish va mahsulotlar ishlab chiqarishga asoslangan va barcha komponentlarni o‘z ichiga olgan yaxlit, o‘zaro bog‘liq ekologiya iqtisodiyoti rivojlantirish talab etilmoqda. Shu munosabat bilan mintaqa iqtisodiyotini ham ekologik talab va tamoyillarga muvofiq ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish natijalarga erishishni kafolatlaydigan yo‘nalishlarni ishlab chiqish zaruratga aylanmoqda. Shuningdek, atmosfera havosining ifloslanishi,

suv resurslarining tanqisligi va ifloslanishi, aholining toza ichimlik suvi bilan yetarli ta'minlanmaganligi, tuproq sho'rlanishi va ifloslanishi, biologik mahsuldorlik va bioxilma-xillikning kamayishi, yaylovlar digressiyasi, chiqindilarning ko'plab to'planib qolishi, qayta tiklanadigan energiya manbalarining cheksiz salohiyatidan foydalanish deyarli yo'lga qo'yilmaganligi va boshqa qator muammolar hal etilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Музалевский А.А. Экологическая безопасность и методы ее обеспечения (Учебное пособие). – Санкт-Петербург: РГГМУ, 2020. – С. 21-22.
2. Фрейдкина Е.М., Трейман М.Г. Экономическая оценка влияния промышленных предприятий на окружающую среду (Учебное пособие). — Санкт-Петербург: ВШТЭ СПбГУПТД, 2016. – С. 18-20.;
3. Buzan B. Security: a new framework for analysis. — Boulder: Lynne Rienner Pub., 2018. – pp. – 89-91.;
4. Sparring E.J. Environmental Security: A conceptual investigating study. – Jonkoping: University, 2019. – pp 13-20.;
5. Джоробеков Ж.М. Экологическая безопасность: понятие и содержание// Ж. Молодой ученый. – М.: № 4 (108), 2016. — С. 546–548.;
6. Суркова Е.В., Мельченко А.И. Экологическая безопасность (Учебное пособие) – Краснодар: КубГАУ, 2014 – С. 12-15.;
7. Порфирьев Б.Н. Природа и экономика: риски взаимодействия. — М.: Анкил, 2011. – С. 26-32.;
8. Тулупов А.С. Теория ущерба как база оценки и регулирования негативных экстерналий в экологическом страховании: Автореф. дис. ... док. экон. наук. – М.: ГУУ, 2013. – 40 с. – manbalar asosida ishlab chiqilgan.
9. Sustain C.R. Two Conception of Irreversible. Environmental harm// Law school The University of Chicago. – Chicago: № 4, 2018. – pp. 285-287.
10. Abelsen R. Arctic security issues. – Kansas: Second Term AY, 2016. – pp. 56-60.
11. Abdullayev O. Namangan viloyati: tabiati, aholisi, xo'jaligi (Monografiya). – Namangan: NamDU, 2006. – B. 49-50.
12. Namangan viloyati gidrometeorologiya boshqarmasi ma'lumotlari.
13. Relyef Namanganskoy oblasti.
<https://www.google.com/maps/@40.8036628,71.3591798,8.76z/data=!5m1!1e4?hl=ru>
14. Kadastr agentligi Namangan viloyati boshqarmasi ma'lumotlari asosida ishlab chiqilgan.
15. Abdullayev O. Namangan viloyati: tabiati, aholisi, xo'jaligi (Monografiya). – Namangan: NamDU, 2006. – B. 12-16.